

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13801219>

To'rayev Shahzod Muyiddin o'g'li

Qarshi muhandislik iqtisodiyot inistituti

Stajyor o'qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yuklar harakatlanuvining terminal tizimini yaratishning asosiy masalalari vazifalari tahlil qilinadi. Yular harakatlanuvining terminal tizimini yaratish bo'yicha keltirilgan taklif va mulohazalar hududda terminal texnologiyasi asosida yuklar tashishni tashkil etishning logistik tizimini shakllantirishga zamin yaratgan holda transport jarayoni ishtirokchilari faoliyatining uyg'unligini ta'minlash hamda tashish jarayonlarining samaradorligini oshirishga imkon beradi.*

Kalit so'zlar: *Tashishlarni tashkil etish, transport vositalari, yuklanganlik, tashishda yuklanganluk, nomenklatura, marshrutlashtirish.*

Ma'lumki, yo'lovchi va yuk tashish davlat iqtisodiyotining yuksalishi va rivojlanishida ulkan rol o'ynaydi. Shu sababli, transport ehtiyojlarini eng kam xarajat bilan maksimal darajada qondirish uchun transportning barcha turlari uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash bugungi kunda odamlar va tovarlar har qachongidan ham tezroq va tez-tez arzonroq harakatlanishi mumkin. Biroq shahar avtomobillari, avtobus va yuk mashinalari tirbandlikda qolib ketadi [1,2,3,4].

Kelgusida transport yuqori tezlikda harakatlanuvchi shahar va shaharlararo avtomobil yo'llarining mavjudligi, chekka hududlarning transportdan foydalanish imkoniyati, transport yo'laklarini rivojlantirish va xalqaro tashishlarni samarali tashkil etish, keng ko'lamli yuqori sifatli xizmatlar mavjudligi bilan ajralib turishi kerak, shuningdek, harakatlanuvchi tarkibning ishonchligi va ekologik tozaligi [5].

Mamlakat iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, yangi tijorat tuzilmalarining shakllanishi va tadbirkorlikning rivojlanishi, yaqin qo'shni mamlakatlar va uzoq chet el bilan xo'jalik aloqalarining intensivlashuvi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yuklar tashuvini tashkil etishga, magistral turdagi transport bilan yuklarni tashib etkazib beruvchi va tashib olib ketuvchi mahalliy avtotransport o'rtasidagi muvofiqlik va o'zaro hamkorlikni ta'minlashga bo'lgan iste'mol talablarini ortishiga olib keladi. Bunda terminal texnologiyalari bo'yicha kompleks transport-ekspeditsion xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Terminal tashishlar, xorijda, avvalo, yuklarni etkazib berishning shaharlararo va xalqaro hamjamiyatida yirik dengiz portlari, transport tarmoqlarida keyinchalik, G'arbiy Evropa va SHimoliy Amerikaning yuk tashuvida paydo bo'ladi. Terminal tashishlarning tashkilotchisi rolida, odatda, transport ekspeditsiya firmalari yoki turli xildagi tashishlar

uchun universal yoki maxsus terminallar yoki terminallar majmuidan foydalanuvchi turli xil transport operatorlari mavjud. Yuk terminallari deb, tashkiliy jihatdan o'zaro bog'liq va qabul qilish, ortish-tushirish, saqlash, turlarga ajratish, turli partiyali yuklarni qayta ishlash bilan bog'liq logistik operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan inshootlar, xodimlar, texnik va texnologik asboblari, shuningdek, yuk qabul qilib oluvchilar, tashuvchilar, unimodal, multimodal, intermodal va boshqa turdagi yuklarni tashishda boshqa logistik vositachilarga tijorat-axborot xizmatlari ko'rsatishning maxsus majmuiga aytiladi.

Yuklar harakatlanuvining terminal tizimini yaratishning asosiy masalalari quyidagilardan iborat: yuklar harakatlanuvining terminal texnologiyalarini joriy etish, sanoat va savdo korxonalaridagi omborxonalarini qisqartirish, hududning transport tugunlarida mijozlarni kafolatlangan tarzda transport -ekspeditsion xizmatlar kompleksi bilan ta'minlovchi, ularning omborxonalar maydonlarini va o'zlariga qarashli avtomobil parklarini qisqartirishga, ko'p smenali - kerak bo'ladigan bo'lsa sutka davomida beto'xtov tarzda terminallar ishini tashkil etish asosida magistrallarda ishlovchi avtopoezdlarning aylanishi vaqtini qisqartirish hisobiga mayda va o'rtacha partiyali yuklarni tashishda kamtonnajli transport vositalaridan foydalanishsamaradorligini oshirish (klassik "terminal" samara) talab etiladi. Mazkur masalani hal etishning shartlari quyidagilardan iborat: terminallarni mehmonxonalar, haydovchilarning dam olish xonalari va oshxonalar bilan jihozlash; terminallarning hududlarida avtomobillarga, tirkamalarga, yarim tirkamalarga va kichik hajmdagi ta'mirlash ishlarini bajaruvchi zonalarni tashkil etish va boshqalar.

Yuklar harakatlanuvining terminal tizimini yaratish bo'yicha keltirilgan taklif va mulohazalar hududda terminal texnologiyasi asosida yuklar tashishni tashkil etishning logistik tizimini shakllantirishga zamin yaratgan holda transport jarayoni ishtirokchilari faoliyatining uyg'unligini ta'minlash hamda tashish jarayonlarining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Bugungi kunda terminallar shunchaki yuk jo'natish punkti bo'lib qolmay, balki muhim yirik logistik markazga aylanib, ko'p miqdorda yuklarni taqsimlash markazlari va ta'minot bazalari rolini o'ynaydi. Universal va maxsuslashtirilgan terminallar va terminal majmualari, universal terminallar o'zida distribyutiv markazli omborlar guruhlarini ifodalaydi. Bu terminallarning vazifalari to'plash, olib kelish, tarqatish, asosan mayda jo'natishlarda yukni qayta ishlash, yuklarni saqlash va boshqa logistik amaliyotlar hisoblanadi. Universal terminallar maxsus omborxonalariga va og'ir vazndagi, uzun, tez buziluvchi yuklarni qayta ishlash uchun asbob-uskunalar, shuningdek, konteynerlar maydonlariga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, terminallar ko'pincha kirish yo'laklari bo'lgan temir yo'llarga ulangan bo'ladi. Universal terminallar amaliyotida bajariladigan asosiy operatsiyalar quyidagilar: - mijozlarning arizalarini qabul qilish va o'rganish; - mijozlar bilan shartnomalarni rasmiylashtirish, - transport logistik xizmat ko'rsatish bozorini o'rganishning marketing tadqiqotlari; - yuklarni to'plash va tarqatish; - qisqa muddatli saqlash;

- yukni qayta ishlashda yig'ish, maydalash, turlarga ajratish, o'rashqadoqlash va boshqa ishlar;

- terminallararo tashish va yuklarni oxirgi iste'molchiga etkazish;

- terminalning axborot xizmati yordamida transport logistik operatsiyalari uchun hisob-kitob ishlarini bajarish va boshqalar.

Odatda yirik universal terminallar ma'muriy binolar, mayda jo'natishlarni qayta ishlash omborlari, yukni uzoq saqlash omborlari, yuklarni bo'xona ko'rigidan o'tkazish va xalqaro tashishlar uchun omborlar, tez buziluvchi yuklarni qayta ishlash uchun omborlar, og'ir vaznli, uzun yuklar va konteynerlar uchun maydonchalar, haydovchilarning dam olish xonasi va avtopoezdlar uchun to'xtash maydonchalariga egadir. Maxsuslashtirilgan terminallar transport-logistik xizmat ko'rsatish ishlarining belgilangan turi yoki assortimentiga qarab amalga oshiriladi. Masalan, tez buziluvchi yuklar, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlar, qog'ozlar va hokazo. Yuk terminallarining maxsuslashuvi mijozlarning yuk tashishi, saqlashi va yuklarni qayta ishlashga bo'lgan talablarini yaxshiroq hisobga olish va logistik menejmentning samaradorligi, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, logistik xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Terminal yuk tashishning texnologik jarayoni uchta asosiy bosqichdan iborat:

- yuklarni terminallarga keltirish va ularni terminallardan tarqatish;

- terminalda yuklarni qayta ishlash;

- terminallararo yuklarni to'g'ridan-to'g'ri tashish.

Yuk avtomobil transporti bozor iqtisodiyotining transport ta'minotining eng muhim elementlaridan biridir. U yuk tashish hajmining qariyb 70 foizini ta'minlaydi va uning transport balansidagi ulushi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Hozirgi kunda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatida xalqaro yuk tashish ishlari olib borilmoqda. Ushbu bozorda 5,5 mingdan ortiq ish o'rni bilan ta'minlovchi va mamlakat byudjet tizimining daromad bazasini yiliga 676,2 mln tonna (14,7 foiz) ortiq miqdorda oshiruvchi Respublika transport kompaniyalari mavjud. 2019-2021 yillardagi pandemiya davrida Respublika tashqi savdo aylanma hajmining kamayishi kuzatildi. Koronavirus pandemiyasi tufayli iqtisodiy faollikning umumiy susayishi sabab 2020 yil yakunlariga ko'ra Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi qisman, ya'ni 2019 yildagiga nisbatan 5,4 foiz pasaydi, biroq O'zbekistonning umumiy tovar aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlari ulushi 12,4 foizdan 13,6 foizga oshdi. 2020 yilda jami yuktashuvlari hajmi 1,3 mlrd. tonna (o'tgan yilga nisbatan 104,6 foiz), yuk aylanmasi 40,1 mlrd. tonna/km.ni (101,8 foiz) tashkil etdi [6].

Transport tizimlarini imitatsion modellashtirish.

Imitatsion modellashtirish - bu matematik modellashtirishning bir turi bo'lib, unda modelning tasviri o'zini qanday tutish modellashtiriladigan tizim elementlarining o'zaro bog'lanishlarining algoritmlari ko'rinishida beriladi. Foydalaniladigan algoritmlar tizim elementlarining ham, va umuman butun tizimning ham o'zini qanday tutishini o'xshatish, shuningdek tizimning faoliyat ko'rsatishining talab qilinadigan parametrlarini aniqlash imkonini beradi.

Imitatsion modellashtirish determinantlangan yoki stoxastik, statik yoki dinamik bo'lishi mumkin.

Stoxastik statik modellarda boshlang'ich ehtimolli parametrlarning qiymatlari tasodifiy sonlar datchigi yordamida shakllantiriladi, shundan keyin beriladigan funksional bog'lanishlar bo'yicha boshqa parametrlarning qiymatlari aniqlanadi. Modelni ko'p marotaba moslashtirish modelning parametrlari to'g'risidagi statistikasi to'plash va shu bo'yicha uning statistik tavsiflarini aniqlash imkonini beradi.

Terminallarda yuk tashishning sxemasi ifodalangan. Terminallarda yuk tashishlar sifati yuklarni yuqori tezlikda etkazib berish va transport vositalaridan samarali foydalanish bilan tavsiflanadi. Yirik logistik tizimlarda yuk tashish usulini tanlashda yuk tashish bilan bog'liq xarajatlarni to'g'ri belgilash katta ahamiyatga egadir. Masalan, yuklarni xalqaro tashish bilan bog'liq xarajatlarni logistik tashkil etuvchilari quyidagilarni o'z ichiga oladi: - mahsulotni jo'natishga tayyorlash (sifatini, sonini, markirovkasi, qadoqlanishi va h.k ni tekshirish); - mamlakatda ortish-tushirish; - yuklarni jo'natish nuqtalarida, terminallarda saqlash, vaqtinchalik saqlash omborlarida va h.k; - yuklarni chegaradan olib o'tish, portlar va xorijda jo'novchi transport vositalariga etkazish; - transport vositalariga ortish (avtomobil, kema va vagon), shu jumladan chegaradan o'tish nuqtasida ham; - xalqaro transport orqali tashish; - sug'urta va bojxona deklaratsiyasi uchun haq to'lash; - belgilangan punktda yukni tushirish; - bojxona to'lovlari, soliq va yig'imlarni to'lash; - yuklarni qabul qiluvchi omboriga etkazilgani uchun haq to'lash va boshqalar. YUklarni etkazishda aniq xarajatlar yig'indisining mavjudligi sotish sotib olish shartnomasi bilan belgilangan asosiy shart - sharoitlardan kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Миротин Л.Б., Чубуков А.Б., Тошбоев И.Э. Логистическое администрирование- Москва: Экзамен, 2009.
2. Qoriyeva, Y. (2012). Глобал логистик тизимларда юкларни ташишнинг замонавий технологияларини жорий этиш. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (2), 106-113.
3. Косимов, С., & Косимов, Б. (2021). Факторы формирования и развития современных терминалов в логистической системе. InterConf.